



Improving the Teaching Process of the German Language in Higher Militarized Educational Institutions Based on Innovative Approaches

Kakharova Munisa

Teacher at the Tashkent Academic Lyceum No. 2 of the Ministry of Internal Affairs of
the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article examines the enhancement of German language teaching in military educational institutions through innovative approaches. The study analyzes the effectiveness of blended learning, task-based and problem-oriented methods, as well as the chain method integrated with interactive techniques, in developing cadets' linguistic and communicative competencies. The results demonstrate that the implementation of innovative pedagogical technologies improves the quality of German language instruction and contributes to cadets' professional readiness and communication culture.

Keywords: German language teaching; military education; innovative approaches; blended learning; communicative competence

Oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarida nemis tili o'qitish jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish

Kaxarova Munisa

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi 2-sonli Toshkent akademik litsey
o'qtuvchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitishni innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda aralash ta'lim modeli, topshiriqqa asoslangan va problemali yondashuvlar samaradorligi, shuningdek, zanjir metodining interaktiv usullar bilan uyg'unlashishi kursantlarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda o'rnini ko'rib chiqilgan. Natijalar innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish nemis tili





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

ta'limining sifatini oshirib, oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan akademik litsey o'quvchilariga kasbiy tayyorgarligi va muloqot madaniyatini rivojlantirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Nemis tili o'qitish; oliy harbiylashgan ta'lim; innovatsion yondashuvlar; aralash ta'lim; kommunikativ kompetensiya; zanjir metodi.

Kirish. So'nggi yillarda ta'lim tizimini modellashtirish jarayonlarida ikki bosqichli siklli yondashuvning samaradorligi ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e'tirof etilmoqda; ushbu modelda tashqi sikl murakkab topshiriqlar ketma-ketligini boshqarish orqali o'quv jarayonining umumiy yo'nalishini belgilasa, ichki sikl har bir topshiriqning bosqichma-bosqich bajarilishini nazorat qilib, o'quvchiga individual fikr-mulohaza va yo'naltiruvchi tavsiyalar beradi, shuningdek, chet tillarni, xususan nemis tilini o'qitishda interaktiv metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol o'yinlar va kommunikativ topshiriqlardan foydalanish orqali talabalarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning amaliy nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muloqot madaniyatini shakllantirish hamda ta'lim motivatsiyasini oshirish va o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada kuchaytirish imkonini yaratadi [1].

Oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini innovatsion pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini optimallashtirishda, kursantlarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlar oliy harbiyalshgan ta'limda malakali mutaxassislarni tayyorlash, o'qitishning interfaol va individual shakllarini takomillashtirish hamda davlat ta'lim siyosatining strategik yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqdir [2].

Zamonaviy oliy harbiylashgan ta'lim tizimida raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari o'quv jarayonini boshqarishda yangi bosqichni boshlab berdi. Intellektual o'qitish tizimlaridan foydalanish o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ta'lim





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

resurslarini avtomatik tanlash va adaptiv boshqaruvni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu tizimlar sun'iy intellekt, mashinali o'qitish va katta ma'lumotlar texnologiyalariga asoslanib, ta'limni shaxsiylashtirish hamda o'quv jarayonining moslashuvchanligini ta'minlaydi [3].

So'nggi ilmiy izlanishlar oliy harbiylashgan ta'lim tizimida oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan akademik litsey o'quvchilari kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda topshiriqqa asoslangan o'qitish yondashuvi yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatadi. Bunday yondashuv talaba-markazli o'qitishni ta'minlab, kommunikativ topshiriqlar orqali amaliy muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. An'anaviy "taqdimot–mashq–qo'llash" modeliga nisbatan bu usul real kommunikativ vaziyatlarda tilni faol qo'llashga yo'naltirilgani bilan ajralib turadi [4].

Xorijiy til ta'limida aralash o'qitish modellarining qo'llanilishi ham o'z samaradorligini isbotlamoqda. An'anaviy pedagogik metodlar bilan raqamli resurslarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi, akademik natijalarni yaxshilaydi va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Video konferensiyalar, interaktiv ilovalar hamda onlayn platformalarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Bundan tashqari, oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarida xorijiy til o'qituvchilarining diagnostik salohiyatini rivojlantirish masalasi ham dolzarb yo'nalishlardan biridir. Nazariy (psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil, sintez va tizimlashtirish) hamda empirik (kuzatish, taqqoslash, tavsiflash) metodlardan foydalanilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, adaptiv ta'lim texnologiyalari yordamida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularning diagnostik tahlil ko'nikmalarini takomillashtirish va xorijiy til o'qitish samaradorligini oshirish mumkin [6].





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarida nemis tili o'qitish jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratildi. Unda aralash ta'lim modeli va raqamli ta'lim resurslarining didaktik imkoniyatlari nazariy, qiyosiy hamda kontekstual tahlil asosida baholandi. Oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan akademik litsey o'quvchilari o'quv faolligi va kommunikativ kompetensiyasini aniqlash uchun so'rovnoma hamda pedagogik kuzatuv usullari qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nemis tili ta'limida innovatsion texnologiyalarni an'anaviy o'qitish shakllari bilan integratsiyalash samaradorligini baholashga xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasiga ko'ra, oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitishda oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan akademik litsey o'quvchilari lingvistik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion va interaktiv pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi. Zanjir metodi (chain method) nutq faoliyatini bosqichma-bosqich va mantiqiy bog'liqlikda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, yangi leksik va grammatik birliklarni avvalgi bilimlarga ulanib o'zlashtirishni ta'minlaydi. Metod og'zaki nutqni faollashtiradi, o'rganilgan bilimlarni kontekstda mustahkamlaydi va oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan akademik litsey o'quvchilari mustaqil fikrlashga rag'batlantiradi.

Zanjir metodini dialog, rol o'yinlari va kontekstli mashqlar bilan uyg'unlashtirish samaradorlikni oshiradi, shuningdek talaffuz, grammatik aniqlik va mazmuniy to'g'rilikni doimiy nazorat qilishni talab qiladi.

Natija va munozara. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitish samaradorligini oshirishda aralash ta'lim modeli an'anaviy darslar bilan raqamli resurslarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

akademik litsey o'quvchilari lingvistik va kommunikativ kompetensiyalari interaktiv va innovatsion pedagogik yondashuvlar orqali sezilarli darajada rivojlantirildi. So'rovnomma va kuzatuv natijalari aralash ta'lim metodlarini samarali va qiziqarli deb baholashini, shuningdek, tilni amaliy kontekstda qo'llashga bo'lgan qiziqish va faollikning oshganligini tasdiqladi.

Topshiriqqa asoslangan va muammoli o'qitish usullari oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan akademik litsey o'quvchilari mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va amaliy yechimlar topishga rag'batlantirdi, shu bilan birga tilni real kommunikativ vazifalarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirdi. Natijada nemis tilini o'qitish sifati va oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan akademik litsey o'quvchilari malaka darajasi sezilarli darajada oshdi.

Olingan natijalar aralash ta'lim yondashuvining nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar dars jarayonida doimiy hamkorlikni ta'minlab, kursantlarning shaxsiy rivojlanishi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rag'batlantiradi. Tadqiqot natijalari mavjud adabiyotlar bilan solishtirilganda, aralash ta'lim metodlari an'anaviy yondashuvlarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatadi.

Kelgusida oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan akademik litsey o'quvchilari individual ehtiyojlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda darslarni yanada shaxsiylashtirish va interfaollikni oshirish bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish tavsiya etiladi.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, an'anaviy darslar bilan raqamli resurslarni uyg'unlashtirgan aralash ta'lim nemis tilini o'qitishda samaradorlikni oshiradi. Innovatsion va interaktiv pedagogik yondashuvlar oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarining tinglovchi kursantlari va harbiylashgan akademik litsey o'quvchilari lingvistik va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirib, mustaqil fikrlash va amaliy til





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH

VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

ishlatish qobiliyatini kuchaytiradi. Topshiriqqa asoslangan va muammoli metodlar esa real kommunikativ vazifalarda malaka oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan aralash ta'lim yondashuvi oliy harbiylashgan ta'lim muassasalarida nemis tilini o'qitishning nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

References

1. Zulfiyakhon, Masodikova. "Mechanisms to Ensure Effectiveness of German Language Teaching in Higher Education Institutions." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, vol. 10, no. 11, 25 Nov. 2022, pp. 726-730.
2. Rahmonkulova Dilshoda Muradkuzievna. *Innovation Technologies In Foreign Language Courses In The Countries Of Military Education*. (2023). *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 1(2), 45-48. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/22>
3. Mahamadov Rustam Xabibullayevich OLIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA INTELLEKTUAL O'QITISH TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI MODELLAR VA ALGORITMLAR // Строительство и образование. 2025. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-harbiy-ta-lim-muassasalarida-mashg-ulotlarni-tashkil-etishda-intellektual-o-qitish-tizimlarining-samaradorligini-oshiruvchi> (дата обращения: 31.10.2025).
4. Zhytska, S. (2014). Training military institutions cadets for professional-communicative activities with the help of task-based learning. *Advanced Education*, (1), 13–20. <https://doi.org/10.20535/2410-8286.29147>
5. M.Y. Shingareva, G.I Smanova. BLENDED LEARNING IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. September 2025 DOI:10.48371/PEDS.2025.78.3.016
6. Hryshchuk, Y. (2023). Postgraduate education methodology for foreign language teachers' assessment competence development in higher military educational institutions. *Scientific Bulletin of Mukachevo State University. Series "Pedagogy and Psychology"*, 9(4), 96-106. <https://doi.org/10.52534/msu-pp4.2023.96>

